

UDK:635.1 /.9.

NAMATAK (ROSA) O'SIMLIGI URUG'INI EKISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹

Yulbasov Avazbek Muhtarovich²

Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li³

Gulomov Shoxujahon Dilmurod o'g'li⁴

muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com¹

avazbekakayulbarsov@gmail.com²

nazirjonovi@mail.ru³

gulomovsh@gmail.com⁴

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Maqolada Namatak (Rosa) ning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotlar dorivorlik xususiyatlari, ekish uchun yerlarni va urug'larni tayyorlash ishlari. Strefikatsi qilingan urug'larni tayyorlangan yerlarga ekish ishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.


Kalit so'zlar: Namatak (Rosa), urug', agrotexnik talablar, strefikatsiya, tuproq, ekish, tuproq sharoitlari

Abstract: This article provides information about the origin and medicinal properties of the Namatak (*Rosa canina*) plant, along with the procedures for preparing soil and seeds for cultivation. It describes in detail the process of sowing stratified seeds into pre-prepared soil. The article emphasizes the importance of following proper agrotechnical practices to achieve high efficiency in the cultivation of this medicinal plant.

Keywords: Namatak (*Rosa canina*), seed, agrotechnical requirements, stratification, soil, sowing, soil conditions.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Odamlar qadimdan dorivor o'simliklardan foydalanib kelgan. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qadimgi Misr mamlakatlarida dorivor o'simliklar haqida kitoblar yozilgan. O'rta Osiyo xalq tabobati bu boradi yetakchi hisoblanib bu haqida bizning Buyuk allomamiz Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari (Kitob al-Qonun fit tib)" asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar aniq va ravshan tarzda ko'rsatilgan. Dorivor o'simliklarning deyarli barcha qismidan xususan: quritilgan poyasi, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (urug'i), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan ko'plab dori-darmon sifatida foydalanib kelinmoqda. Ko'p izlanishlar oqibarida hozirgi vaqtda juda ko'p dorivor o'simliklar aniqlanib ularni tarkibi tekshirilib tabobatda juda ko'p kasalliklarga qarshi foydalanib kelinmoqdan. Namatak (*Rosa canina*) — barg to'kuvchi buta o'simligi bo'lib, asosan dorivor xususiyatga ega mevalari bilan qadrlanadi. Uning tarkibida C vitamini juda yuqori bo'lib, sirop, murabbo, choy va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi. Namatakni ko'paytirishning eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri — urug'dan yetishtirishdir. Bu usul ko'p miqdorda ko'chat tayyorlash, seleksiya va tabiiy xillikni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Namatak (*Rosa canina*) ekish uchun dasavval urug'larni ekisga

tayyorlash kerak bo'ladi buning uchun to'liq pishgan mevalardan urug'lar ajratilib, tozalanadi va salqin joyda quritiladi. Quritilgan urug'lar mato xaltachalarga yoki qog'oz paketlarga solinib, quruq va salqin joyda saqlanadi. Urug'lar nish urishi uchun stratifikatsiya muolajasidan o'tkaziladi **Stratifikatsiya** - bu urug'larni nish urishga tayyorlash uchun mo'ljallangan maxsus jarayon bo'lib, urug' ichidagi biologik uyqu (dormantlik) holatini buzadi. Namatak urug'ining tabiiy qobig'i qattiq bo'lgani sababli, u to'g'ridan-to'g'ri ekilganda uzoq vaqt nish bermasligi mumkin. Shu bois stratifikatsiya orqali uning ichki fiziologik jarayonlari uyg'otiladi. Namatak (*Rosa canina*) o'simligini **Stratifikatsiya qo'yishdan asosiy maqsad** Urug' nish urishini tezlashtirish, urug'ning nish urish ko'rsatkichini oshirish va ko'chatlar bir vaqtda, teng rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Stratifikatsiya jarayoni Urug'lar **1 qism urug' 3 qism hijob yoki qum** nisbati bilan aralashtiriladi, Aralashma plastik idish, qopqoqli bankalar yoki polietilen paketlarga solinadi, $+2^{\circ}\text{C}$ dan $+5^{\circ}\text{C}$ gacha haroratda saqlanadi (muzlatkichning pastki qismida yoki yerosti omborida), Har oyda bir marta aralashma ochilib, havosi almashtiriladi, Urug'lar chirib ketmasligi uchun ortiqcha namlik nazorat qilinadi. Bu usul nam qum yoki hijob (torf) aralashmasida, past haroratda olib boriladi.



1-rasm Namatak (*Rosa canina*) o'simligini stratifikatsiya qo'yish jarayoni

Yer tanlash va tayyorlash tuproq tanlovi namatak o'simligi chuqur ildiz

otadigan, unumdor va yengil tuzilishga ega tuproqlarda yaxshi rivojlanadi. Quyidagi tuproq turlari mos keladi Tuproq unumdor, bo'sh va namni yaxshi tutuvchi bo'lishi lozim.

1-jadval

Tuproq turi	Moslik darajasi	Izoh
Qumloq-chirindi	Yuqori	Suv o'tkazuvchan, nafas oluvchi, ozuqaviy boy
Qumloq	O'rtacha	Suvni tez o'tkazadi, tez quriydi – ko'p sug'orish kerak
Loyqa, sho'r yoki zich	Past	Ildiz chirishi, suv turg'unligi xavfi yuqori


Kuzda shudgor qilinib, bahorda tekislanadi. Har gektarga 20–30 tonna organik o'g'it va 100–150 kg mineral o'g'itlar tavsiya etiladi. Namatak (Rosa canina) Urug'ni ekish uchun tuproq turlari va sharoitlari bo'yicha 1-jadvalimzda ma'limotlar keltirilgan. Joy tanlash quyoshli, shamoldan himoyalangan joylar tanlanadi. Pastqam, suv yig'iladigan joylardan saqlanish lozim. Yerni kuzgi shudgorlash kuzda, urug' ekishdan 6–7 oy oldin yer chuqur shudgor qilinadi. Shudgordan so'ng yerni havo tushishi uchun ochiq qoldiriladi. Bahorgi yumshatish bahorda, ekishdan 1–2 hafta oldin yerni kultivatsiya (yumshatish) qilinadi.

2 - jadval

№	Ko'rsatkich	Qiymat
1	Ekish chuqurligi	1,5–2 sm
2	Qatorlar oralig'i	50–70 sm
3	Urug'lar oralig'i	5–10 sm

4	Stratifikatsiya davomiyligi	3–4 oy
5	Tavsiya etilgan harorat	+2...+5 °C

Tekislanadi, bo‘lak-bo‘lak tuproq parchalari maydalab tekis sath hosil qilinadi. Namatak (*Rosa canina*) Urug‘ni ekish ishlarini bahorda stratifikatsiyadan chiqqan urug‘lar 1,5–2 sm chuqurlikda ekiladi. Qator orasi 50–70 sm, urug‘lar oralig‘i 5–10 sm bo‘lishi kerak. Namatak (*Rosa canina*) Urug‘ni Ekish texnologiyasi bo‘yicha 2 –jadvalimizda ma’lumotlar keltirilgan



Namatak (*Rosa canina*) urug‘ini ekish bosqichlari diagrammasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namatak (Itburun) o‘simligini muvaffaqiyatli ekish va sog‘lom ko‘chatlar yetishtirishda yer tayyorlash bosqichi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tuproqning fizik va kimyoviy holati, uning namlikni tutish qobiliyati, o‘g‘itlash darajasi va agrotexnik

tadbirlarning to'g'ri tashkil etilishi — bularning barchasi nihollarning unib chiqishiga va kelajakda o'simlikning salomatligiga bevosita ta'sir qiladi.

To'g'ri tayyorlangan yer:

urug'larning bir me'yorda va tez nish urishini

ildiz tizimining chuqur va mustahkam rivojlanishini

o'simlikning kasallik va zararkunandalarga nisbatan chidamliligini ta'minlaydi.

Takliflar

1. **Tuproq tahlilini o'tkazish:** Ekishdan oldin tuproqning mexanik tarkibi va ozuqaviy moddalarga boyligini laboratoriyada tekshirish tavsiya etiladi.
2. **Chuqur shudgorlashni unutmashlik:** Yerning chuqur shudgor qilinishi, ildiz rivojlanishiga qulay muhit yaratadi.
3. **Organik va mineral o'g'itlarni me'yorda qo'llash:** Bu o'simlik rivoji uchun zarur mikroelementlar bilan ta'minlaydi.
4. **Suv ta'minotini nazorat qilish:** Sug'orish imkoniyati mavjud bo'lgan joylar tanlanishi lozim.
5. **Agrotexnik tadbirlarni izchil bajarish:** Har bir bosqichga jiddiy yondashish nihoyatda muhim.

Natijada, yaxshi tayyorlangan yer — barakali hosilning poydevoridir. Namatak ekishda bu bosqichga yetarli e'tibor berish, kelgusida mehnat va mablag' sarfini kamaytiradi, hosildorlikni esa oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov A., Xolmatov B. **Dorivor o'simliklar ensiklopediyasi.** – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 320 b.
2. Sobirov O.S., Karimov U.A. **Qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnikasi.** – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. – 248 b.
3. Xasanov A.A. **O'simlikshunoslik asoslari.** – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2020. – 276 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi: **"Yovvoyi mevali butalarni ko'paytirish va yetishtirish bo'yicha tavsiyalar"**, metodik qo'llanma, 2021.

5. Internet manbalar:

- <https://www.floralworld.uz/articles/itburun-yetishtirish>
- <https://agroinfo.uz/namatak-ekish-usullari/>
- <https://uzagro.uz/library/medplants/rosa-canina-cultivation/>